

EKOLOGIK BORLIQNI TADQIQ ETISHNING KATEGORIAL APPARATI VA METODOLOGIYASI

Nogaibaev Iqlas Almagambetovich, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

THE CATEGORICAL APPARATUS AND METHODOLOGY FOR STUDYING ECOLOGICAL BEING

Nogaibaev Iqlas Almagambetovich, Lecturer at the Department of Social and Humanitarian Sciences Nukus Branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

КАТЕГОРИАЛЬНЫЙ АППАРАТ И МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО БЫТИЯ

Ногаибаев Йиклас Альмагамбетович, преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук Нукусского филиала государственного института искусства и культуры Узбекистана

Annotasiya: Maqolada ekologik borliqni tadqiq etishning asosiy kategoriyalari va metodologik yondashuvlari, inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik doirasida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ekologik borliq, metodologiya, kategoriya, tizim, inson va tabiat.

Abstract: This paper explores key categories and methodological approaches for studying ecological being as a philosophical issue reflecting human–nature interaction under environmental challenges.

Keywords: ecological being, methodology, categories, system, human and nature.

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые категории и методологические подходы к исследованию экологического бытия как философской проблемы, отражающей взаимосвязь человека и природы в условиях экологических вызовов.

Ключевые слова: экологическое бытие, методология, категории, система, человек и природа.

KIRISH. Global ekologik muammolar nisbiy avtonomiyaiga ega bo‘lib, jahon munosabatlari tizimining ajralmas qismi va insoniyat tarixiy taraqqiyotining asosiy omili bo‘lib, unga tobora sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ekologik muammolarni ajratishning mazmuni va

mezonlari masalasi munozarali bo‘lib qolmoqda, ammo ularning bir qator xarakterli xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, bu muammolar keng ko‘lamli va butun sayyorani qamrab oladi. Ikkinchidan, ular yuqori darajadagi o‘tkirlikka ega, bu esa turli davlatlarning sa’y-harakatlarini



<https://orcid.org/0009-0004-2064-8717>

e-mail: iglasvich@mail.ru

muvofiqlashtirishda ularni xalqaro miqyosda doimiy ravishda hal qilishni talab qiladi. Uchinchidan, ularning kompleks xarakteri ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarning har tomonlama tahlil qilish va samarali yechimlarni izlashda ishtirok etishini, shuningdek, faol xalqaro hamkorlikni nazarda tutadi. Bundan tashqari, ekologik muammolar dinamizmga ega: ular qisman hal etilganda yoki dolzarbligi pasayganda, ular o‘z o‘rnini diqqat bilan e‘tibor berishni talab qiladigan yangi muammolarga bo‘shatib berishi mumkin. Nihoyat, ular butun insoniyat uchun universal ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, geografik joylashuvi va ijtimoiy tuzilishidan qat‘i nazar, insonlar manfaatlariga daxldordir. Bu xususiyatlarning barchasi ekologik borliq va uning asosiy kategoriyalarini batafsil ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Ilmiy adabiyotlarda uning ta’rifi bo‘yicha ko‘plab turli xil qarashlar mavjud bo‘lib, bu mavjud falsafiy-metodologik yondashuvlarni tizimlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHЛИI VA METODOLOGIYA. Birinchidan, ontologik yondashuv ekologik borliqni tabiatning asosiy xususiyati sifatida ko‘rib chiqadi, uning yaxlitlikda va o‘zaro ta’sirda mavjudligini belgilaydi. Ushbu yondashuv doirasida tabiat umumiy rivojlanish qonunlari bilan birlashtirilgan o‘z-o‘zini tartibga soluvchi ekotizimlar to‘plami sifatida tushuniladi.

Klassik falsafa nuqtayi nazaridan ekologik borliqni naturfalsafa nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish mumkin, bunda tabiat dinamik va o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi yaxlitlik sifatida namoyon bo‘ladi (Geraklit, Aristotel, Spinoza). Zamonaviy falsafada bu yondashuv V.I.Vernadskiyning biosfera konsepsiysi bilan ifodalanadi, u hayot global geokimyoiy tizimning ajralmas qismi ekanligini, inson faoliyati esa yangi bosqich – noosferaning shakllanishiga olib kelishini ta’kidlagan.

Ikkinchidan, dialektik yondashuv qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi, miqdor

o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, qarama-qarshiliklar orqali rivojlanish tamoyillariga asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan, ekologik borliq barqarorlik va o‘zgarishlarning dinamik tizimini shakllantiruvchi tabiiy va antropogen omillarning o‘zaro ta’siri jarayoni sifatida qaraladi. K.Marks va F.Engelsning dialektik materializmi tabiatni insonning passiv muhiti deb emas, balki inson doimo o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan faol sistema deb qarashga imkon berdi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, barqaror rivojlanish va ekotizim barqarorligiga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, fenomenologik yondashuvga kelsak, fenomenologiya (E.Gusserl, M.Xaydegger) ekologik borliqni inson tomonidan tabiatni idrok etish va tushunish orqali ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Bunda atrof-muhit shunchaki ilmiy tahlil obyekti emas, balki inson madaniyati, tili va dunyoqarashiga kiritilgan hodisaga aylanadi. M.Xaydegger o‘zining “Borliq va vaqt” asarida insonning tabiatga munosabati masalasini ko‘tarib, ekzistensial borliq doimo olam va uning yashash muhiti bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi[1]. Shu ma’noda ekologik borliq nafaqat fizik, balki tabiiy jarayonlarni idrok etish bilan bog‘liq bo‘lgan mazmuniy kategoriya hamdir.

To‘rtinchidan, tizimli va kibernetik yondashuvda tizimlarning zamonaviy nazariyaları (L.fon Bertalanfi) va kibernetika (N.Viner) ekologik borliqni barcha tarkibiy qismlari energiya, axborot va modda oqimlari bilan o‘zaro bog‘langan murakkab ko‘p darajali tizim sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Tizimli yondashuv ekotizimlarning ishslash qonuniyatlarini, ularning o‘z-o‘zini boshqarish va barqarorlik mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuvning muhim xususiyati emergentlik tamoyili bo‘lib, unga ko‘ra tizimning yaxlitligi uning alohida qismlari yig‘indisiga keltirilmaydigan yangi xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, ekosentrik va biosferaviy yondashuvda ekosentrizm antroposentrizmga qarama-qarshi qo‘yiladi va ekologik borliqni inson tabiatning hukmon elementi emas, balki uning bir qismi bo‘lgan yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Ushbu yondashuv doirasida tabiat etikasi, bioxilma-xillik va chuqur ekologiya tamoyiliga (A.Ness) alohida e’tibor qaratiladi.

V.I.Vernadskiy va uning izdoshlari tomonidan rivojlantirilgan biosfera yondashuvi bo‘lsa biosferaning barqarorligini shakllantirish va uning evolyusiyasida tirik organizmlarning rolini ta’kidlaydi. Bu konsepsiya ko‘ra, ekologik borliq biotik va abiotik jarayonlarning dinamik o‘zaro ta’siri bo‘lib, Yerning global tiziminining barqarorligini ta’minkaydi.

Oltinchidan, ijtimoiy-ekologik va madaniy yondashuvda ijtimoiy-ekologik istiqbol inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, ekologik borliq urbanizatsiya, sanoatlashtirish, ekologik siyosat va barqaror rivojlanish tomonidan ko‘rib chiqiladi. **Ushbu yondashuvning madaniyatshunoslik aspekti** (Yu.Lotman, V.S.Bibler) shuni ko‘rsatadiki, tabiat va ekologik borliqni idrok etish jamiyatning madaniy kodlari, an’analari va dunyoqarash ko‘rsatmalari orqali shakllanadi[2]. Insonning tabiatga bo‘lgan munosabati ko‘p jihatdan uning qadriyat yo‘nalishlari va ekologik onglilik darajasiga bog‘liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ekologik borliq tushunchasini ta’riflashga yondashuvlarning xilma-xilligi uning fanlararo xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ontologik, dialektik, fenomenologik, tizimli va ekosentrik konsepsiylar ushbu tushunchaning turli qirralarini ochib berishga imkon beradi, bu esa uni ekologiya va barqaror rivojlanish falsafasining muhim kategoriyasiga aylantiradi. Ekologik borliqning yuqorida keltirilgan ta’riflaridan kelib chiqib, ushbu tushunchaning fanlararo xususiyatini hisobga olgan holda, unga quyidagi mualliflik ta’rifi berish mumkin:

ekologik borliq deganda tarixiy jarayonning ekologik tarkibiy qismini aniq hisobga oladigan insonlar tarixi va tabiat tarixining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi tizimi tushuniladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, turli xil metodologik yondashuvlarning sintezi ekologik borliqning tizimliligin chuqurroq tushunish va uni barqaror rivojlantirishning yangi strategiyalarini taklif qilish imkonini beradi. Kompleks tahlil nafaqat ekotizimlarning ishlash qonunlarini, balki ularning insoniyat sivilizatsiyasi bilan uyg‘un yashash usullarini ham aniqlaydi, bu esa ushbu yondashuvni XXI asrning ekologik muammolari sharoitida ayniqsa dolzarb qiladi. Birinchidan, kompleks metodologik yondashuvning asosiy afzalliklaridan biri ekologik borliqni tashkil etishning turli darajalari o‘rtasidagi ichki munosabatlarni aniqlash imkoniyati hisoblanadi. Hozirgi zamон ekologik muammolari shuni ko‘rsatadiki, hech bir usul o‘zo‘zidan sodir bo‘layotgan jarayonlarning butun murakkabligini to‘liq qamrab olishga qodir emas. Biroq, ularning kombinatsiyasi tabiiy va ijtimoiy tizimlarning ishlashining ko‘p o‘lchovli manzarasini yaratishga imkon beradi, bu esa ularning barqarorligi va rivojlanish tamoyillarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ikkinchidan, ekologik borliqning tizimliligin falsafiy tahlil qilish biologiya, fizika, sotsiologiya, iqtisodiyot va kognitiv fanlarni o‘z ichiga olgan turli ilmiy fanlarning integratsiyasiga tayanadi. Masalan, V.I.Vernadskiyning noosfera konsepsiysi doirasida o‘tkazilgan biosfera barqarorligi sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekotizimlarning ishlashini antropogen ta’sirdan ajralgan holda ko‘rib chiqish mumkin emas[3]. Texnologik taraqqiyotning rivojlanishi, urbanizatsiya, demografik o‘zgarishlar – bularning barchasi tabiiy-ilmiy va gumanitar tadqiqot usullarini jalb qilgan holda tizimli tahlilni talab qiladi.

Uchinchidan, ekologik borliqning tizimliligin tadqiq etishning markazi vositalaridan biri strukturaviy-funksional tahlil bo‘lib qolmoqda. Ushbu usul ekotizimlar faoliyatining ichki mexanizmlarini, ularning dinamik muvozanati va barqarorligini aniqlash

imkonini beradi. T.Parsonsning fikriga ko'ra, har qanday murakkab tuzilma, shu jumladan ekotizim, ma'lum funksiyalarni bajaradigan o'zaro bog'liq elementlar to'plamidir[4].

To'rtinchidan, ekologiya falsafasiga tatbiqan bu har bir tabiiy tizim uning yashovchanligini ta'minlaydigan barqaror tuzilmaga ega ekanligini anglatadi. Masalan, biosferadagi moddalar aylanishi ekosistemalarning dinamik muvozanatini ta'minlovchi turli tabiat komponentlarining funksional o'zaro ta'siriga misol bo'la oladi. Biroq, olimlar ta'kidlaganidek, ushbu tuzilmaning elementlaridan birining buzilishi halokatli o'zgarishlarning zanjirli reaksiyasiga olib kelishi mumkin, buni biz global iqlim o'zgarishi jarayonida kuzatamiz.

Beshinchidan, ekologik borliqning tizimliligini tushunish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. U G.Brundtland tomonidan taklif etilgan barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosini tashkil etadi, unga ko'ra jamiyatning rivojlanishi ekotizim muvozanatini buzmasdan amalga oshirilishi kerak[5]. Tizimli tahlil inson xo'jalik faoliyatining uzoq muddatli oqibatlarini baholash va ekologik barqarorlikni saqlashga qaratilgan strategiyalarni taklif qilish imkonini beradi.

Oltinchidan, ekologik borliqning tizimliligini tarkibiy-funksional tahlil asosida boshqa metodologik yondashuvlar bilan uyg'unlikda tadqiq etish global ekologik muammolarni anglash, tabiat va jamiyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga qodir bo'lgan yechimlarni topish uchun yangi istiqbollarni ochib beradi. Gegel va Marks an'anasi rivojlantirilgan dialektik usul ekotizimlar statik emasligini, balki qarama-qarshi omillarning o'zaro ta'siri tufayli doimiy o'zgarish jarayonida ekanligini isbotlaydi.

Bu usul tabiiy tizimlarning rivojlanish va barqarorlik mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi.

Yettinchidan, E.Gusserl va M.Xaydeger g'oyalariga asoslangan fenomenologik yondashuv ekologik borliqni nafaqat ilmiy nuqtayi nazardan, balki insonning tabiiy jarayonlarni idrok etishi va tushunishi nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, ekologik ong va axloqni shakllantirish sharoitida muhimdir.

Sakkizinchidan, T.Parsons tomonidan taklif etilgan strukturaviy-funksional tahlil ekotizimlar komponentlarining roli va o'zaro aloqalarini tizimlashtirish, ularning barqarorligi va tashqi ta'sirlarga moslashish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv amaliy ekologik tadqiqotlar uchun ham nazariy asos bo'ladi.

Ekologik borliqning tizimliligini tadqiq etishning metodologik asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy falsafiy yondashuvlar ekotizimlarning tuzilishi, dinamikasi va ishslash qonuniyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хайдеггер М. Бытие и время. М.: AdMarginem, 1997. 451 с.
2. Библер В.С. На гранях логики культуры. М.: Рус.Феноменол. о-во, 1997- 440 с.; Лотман Ю. Культура и взрыв. М.: ACT. 2018. 256 с.
3. Вернадский В.И. Биосфера и ноосфера, Москва: Айрис Пресс. 2002. с. 142.
4. Парсонс Т. Система современных обществ, М.: Аспект Пресс, 2000. с. 56.
5. Брундтланд Г. Наше общее будущее, М.: Прогресс, 1989, с. 112.